

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.03.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

ALIYEV XAKIM BOXODIR O'G'LI

**QALMOQIR KONIDA ISHLATILAYOTGAN 110G13L PO'LATDAN
YASALGAN EKSKAVATOR TISHLARINING KIMYOVIY TARKIBINI
O'ZGARTIRISH ORQALI MEXANIK XUSUSIYATLARINI YAXSHILASH**

05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir va radioaktiv elementlar texnologiyasi (texnika fanlari)

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Aliyev Hakim Boxodir o‘g‘li

Qalmoqir konida ishlatilayotgan 110G13L po‘latdan yasalgan ekskavator tishlarining kimyoviy tarkibini o‘zgartirish orqali mexanik xususiyatlarini yaxshilash..... 3

Алиев Хаким Боходир угли

Повышение механических свойств зубьев экскаватора из стали 110Г13Л используемых на Кальмакырском месторождении, путем изменения химического состава..... 21

Aliev Khakim Bokhodir ugli

Improving the mechanical properties of excavator teeth made from 110G13L steel, used at the Kalmakyr field, by changing the chemical composition..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
 List of published works 44

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.T.03.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

ALIYEV XAKIM BOXODIR O'G'LI

**QALMOQIR KONIDA ISHLATILAYOTGAN 110G13L PO'LATDAN
YASALGAN EKSKAVATOR TISHLARINING KIMYOVIY TARKIBINI
O'ZGARTIRISH ORQALI MEXANIK XUSUSIYATLARINI YAXSHILASH**

**05.02.01 – Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim
ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir va
radioaktiv elementlar texnologiyasi (texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.2.PhD/T3474 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (rus, o'zbek, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining (www.tdtu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Jumayev Elyorjon Erkin o'g'li texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Usmankulov Orifjon Naziraliyevich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Dunyashin Nikolay Sergeyeovich texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.03.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "4" dekabr soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 2-uy. Tel/faks.: (99871) 207-44-40, e-mail: (tadqiqotchi@tdtu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 55raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 2-uy. Tel/faks.: (99871)207-44-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "21" noyabr kuni tarqatildi.
(2025 yil "21" noyabrdagi № 200 raqamli ryestr bayonnomasi).

K.A. Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

Sh. B. Tashbulatov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, dotsent

N.D. Turaxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda metallurgiya sanoati iqtisodiyotning rivojlanishida hal qiluvchi asosiy sohalardan biri bo'lib, po'latga bo'lgan talab yiliga 150 million tonnadan oshgan holda yangi, zamonaviy mashina va mexanizmlar detallarining sifatini oshirishda hamda innovatsion texnologiyalarni takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bu borada, jumladan, ma'danlarni qazib olishda qo'llaniladigan 110G13L markali po'latdan yasalgan ekskavator tishlarining kimoviy tarkibini o'zgartirish orqali ularning fizik–mexanik va ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash, ma'danlarni qayta ishlash orqali ulardan metallarni ajratib olishda ishlatiladigan texnikalarning samaradorligini oshirish va atrof–muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni joriy etish katta ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tog'–kon sanoati ma'danlarini qazib olish, parchalash va tashuvchi transportga yuklashda asosiy texnika hisoblangan tog'–kon ekskavatorlarining ishlash qobiliyati va samaradorligini oshirish, ekskavator ishchi organlarining sifatini yaxshilash va umrboqiyiligini oshirish, ekskavator tishlarini maxsus po'latlardan yasash usullarini aniqlash va ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan fizik–kimoviy va mexanik jarayonlarning mexanizmlarini aniqlash hamda avtomatlashtirilgan texnika vositalarining yangi ilmiy–texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Bu borada, jumladan, ekologik meyorlarga rioya qilgan holda innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekskavatorlarning yuqori ish sifatini ta'minlash hamda energiya va resurslarni tejash, energiya–resurstejamkor texnika vositalarini ishlab chiqish hamda ularning texnologik jarayoni, parametrlari va ishlash rejimlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ma'danlarni qazib olishning ochiq usuli ko'proq qo'llanilishini hisobga olgan holda, tog'–kon ekskavatorlari ekspluatatsiya jarayonlarida ekskavator cho'michiga o'rnatilgan tishlarning yeyilishbardoshligini oshirish, metallurgiya korxonalarini zarur xomasholar bilan ta'minlashda mehnat hamda energiya sarfini kamaytirish, ekskavator tishlarining mexanik xossalarini davlat standartlariga mos ravishda yaxshilash va resurslarni tejash imkonini beradigan zamonaviy texnika va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora–tadbirlar amalga oshirilib, muayan natijalarga erishilmoqda. 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasida "...milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish..."¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, "Olmaliq KMK" AJning Qalmoqir konida ishlatiladigan ekskavator tishlarining mexanik xossalarini ular tayyorlangan materialning kimoviy tarkibini o'zgartirish orqali mexanik xususiyatlarini yaxshilashga erishish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi №PF–6079–

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi №PF-60-sonli «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

son «Sanoatni jadal rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 1 martdagi №PF–6328–son «Ilmiy–tadqiqot faoliyatini qo‘llab–quvvatlash va rivojlantirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda 2022 yil 6 iyuldagi №PQ–307–son «2022–2026–yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora–tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo amaliyotida turli mashina va uskunalarning yeyilishga chidamli qismlari quyib olinadigan po‘latlarning xossalarini samarali yaxshilash bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlar o‘zlarining ulkan xissalarini qo‘shganlar: Najafabadi V., Zhuang W., Çakir O., Sabzi M, Feng X. Rama S. va boshqalar tomonidan yuqori marganesli po‘latlarning mexanik xossalarini oshirish bo‘yicha ishlar olib borilgan. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida yuqori marganesli po‘lat o‘zining mexanik xossalarini sezilarli darajada oshirdi. Quanshun L., Nam N., Manjunatha M., Ulrich P., Pham M., Wu W., Yun X., Anijdan M., Park N. va boshqa olimlar tomonidan yuqori marganesli po‘latlarni modifikatsiyalash va mikrolegirlash bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida materialning turli xil mexanik ko‘rsatkichlarini oshirishga erishilgan.

MDH va O‘zbekiston olimlari Kasimgazinov A., Zudova M., Rozum V., Slutskiy A., Zavyalov V., Vdovin K., Gorlenko D., Pesin A., Yashenko N., Shramko M., Moxtar B., Nurumgaliyev A., Atajanov G., Turaxodjaye N., Norxudjaye F. va boshqalar ham shunday tadqiqotlar olib borishgan. Ular legirlovchi elementlar hamda qo‘shimchalarning tarkibi ta’sirining sabablarini batafsil o‘rganishgan.

Po‘latning mexanik xususiyatlarini oshirish sohasidagi ko‘plab ilmiy ishlar va yutuqlarga qaramasdan, ishlab chiqarish joylarida mavjud bo‘lgan barcha sharoitlarni qondira oladigan universal yechim yo‘q. Turli xildagi uskunalarning yeyilishga chidamli qismlari va uzellarini quyishda ishlatiladigan po‘latlarning mexanik xususiyatlarini oshirish masalasini hal qilish uchun har bir korxonaning o‘ziga xos sharoitlari va legirlovchi elementlar tarkibini alohida hisobga olgan holda yondashish zarur.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy–tadqiqot muassasasining ilmiy–tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy–tadqiqot ishlari rejasining №FL–7923051900 “Kam legirlangan konstruksion po‘latlar va qotishmalarning yeyilishbardoshligi va korroziyabardoshligini oshirish maqsadida azot va uglerod atomlari bilan to‘yintirishda strukturaviy–fazaviy o‘zgarishlar qonuniyatlarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qalmoqir konida ishlatilayotgan 110G13L markali po‘latdan yasalgan ekskavator tishlarining kimoviy tarkibini o‘zgartirish orqali

ularning mexanik xususiyatlarini yaxshilash hamda yeyilishga chidamli po‘latlarni modifikatsiyalash texnologiyalarini yanada takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yuqori marganesli po‘latga alyuminiy va nikel qo‘shib modifikatsiyalash texnologiyalarini o‘rganish;

materialning tuzilishi va xossalariga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

110G13L markali po‘latning mexanik xususiyatlariga legirlovchi elementlar miqdorining ta’sirini tadqiq etish;

yuqori marganesli po‘latlarni modifikatsiyalash va legirlashning rivojlanish yo‘nalishlarini tahlil qilish, laboratoriya sinovlarini o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish;

yarim sanoat sinovlarini amalga oshirish, olingan natijalarni tahlil etish va texnologiyaning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida 110G13L markali po‘latidan tayyorlangan ekskavator tishlari, kimoviy tarkibi, mexanik xususiyatlari, mavjud po‘lat quyish texnologiyasi hamda Qalmoqir konida ekskavator tishlarini ekspluatatsiya qilish sharoitlari.

Tadqiqotning predmeti. Ekskavator tishlarining mexanik xususiyatlarini, ularni tayyorlashda ishlatiladigan materialning kimyoviy tarkibini o‘zgartirish orqali yaxshilash jarayonini ifodalaydigan analitik bog‘lanishlar, qurilmaning parametrlari, ish rejimlari va ko‘rsatkichlari hamda ularning o‘zgarish qonuniyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda fizik–kimoviy taxlilning zamonaviy usullari, jumladan, IQ–spektroskopiya, elektron mikroskopiya, rentgen difraksiyasi (XRD) va skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) hamda natijalarni statistik va matematik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

110G13L markali po‘latning tarkibiga 2% gacha alyuminiyni qo‘shish orqali uning legirlovchi xususiyatlarini yaxshilash uchun po‘latning optimal kimoviy tarkibi ishlab chiqilgan;

po‘latni pechdan tushirish paytida quyish cho‘michiga alyuminiyni qo‘shish marganetsni po‘latda legirlovchi element sifatida deyarli to‘liq holda qatnashishiga va ferromarganets sarfini tejashi hamda 4,5 ming tonna tayyor mahsulot iqtisod qilinishi asoslangan;

110G13L markali po‘latni alyuminiy bilan kimoviy modifikatsiyalash natijasida qotishma suyuqligining oquvchanligini oshishi va quyma metallning yanada nozikroq dendrit tuzilishiga ega bo‘lishi hisobiga uning korroziyaga chidamliligi hamda cho‘zilishdagi mustahkamligini 2 barobarga oshishi aniqlangan;

alyuminiyni modifikator sifatida 110G13L markali po‘lat tarkibiga kiritish orqali po‘latning qattiqligini (Brinel bo‘yicha) 60% ga, zarbiy qovushqoqligini (KCU) esa 40% ga oshishi hamda turli o‘qli, mayda donali tuzilishga ega bo‘lgan po‘latning shakllanishi, quymalarda transkristallanishning yo‘qligi yeyilishga chidamlilikda yuqori mexanik xususiyatlarini oshirishi asoslangan;

ekskavator tishlarini tayyorlashda ishlatiladigan 110G13L markali po‘latini modifikatsiyalash bo‘yicha yangi resurstejamkor texnologiyaning rejimlari ishlab chiqilgan: metallni eritish harorati 1480 °C, eritish uchun sarflangan umumiy vaqt 3

soat va alyuminiyning miqdori 2% gachani tashkil etishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

modifikator sifatida Al qo‘shib quyilgan ekskavator tishlarining ish unumdorligi oddiy tishlarga nisbatan 60 ming m³ ga oshganligi aniqlangan;

po‘latni alyuminiy bilan modifikatsiyalash natijasida po‘latni legirlash va kislorodsizlantiruvchi sifatida qo‘llaniladigan ФМН95 ni va 4,5 ming tonna tayyor mahsulotni iqtisod qilishi asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o‘lchash vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o‘zaro muvofiqligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan ekskavator tishining sinovlarini ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, tog‘–kon sanoati mashinasi ishchi qismlarining talab darajasidagi ish sifatini ta‘minlaydigan kimoviy tarkibi, texnologik parametrlari va ish rejimlarining asoslanganligi kimoviy modifikatsiyalangan 110G13L markali po‘latdan ekskavator tishlarini ishlab chiqarishda sodir bo‘ladigan fizik–mexanik jarayonlarning mexanizmlarini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ekskavator tishlarining tog‘–kon sanoati ma‘danlarini qazib olish, parchalash va tashuvchi transportga yuklashda energiya va mehnat sarfining kamayishi, tishlarning ishlash qobiliyati va yeyilishbardoshligining oshishi hamda ish sifatining yaxshilanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qalmoqir konida ishlatilayotgan 110G13L markali po‘latdan yasalgan ekskavator tishlarining kimoviy tarkibini o‘zgartirish orqali ularning mexanik xususiyatlarini yaxshilash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

modifikatsiyalangan 110G13L markali po‘latidan yasalgan ekskavator tishlari Qalmoqir koni uchun ekskavator tishlarini ishlab chiqaradigan Markaziy ta‘mirlash–mexanika zavodida amaliyotga joriy etilgan (“Olmaliq KMK” AJning 2024 yil 4 sentabrdagi №09–24/42–00018–sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, ekskavator tishlarining mexanik xususiyatlari va yeyilish qarshiligini 2 baravargacha oshirish imkonini bergan;

110G13L markali po‘latini modifikatsiyalash texnologiyasi “Olmaliq KMK” AJ koshidagi “Markaziy ta‘mirlash mexanika zavodi”da amaliyotga joriy etilgan (“Olmaliq KMK” AJning 2024 yil 4 sentabrdagi №09–24/42–00018–sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, ekskavator tishlarining yuklangan ma‘dan hajmi oddiy tishlarga nisbatan 60 ming m³ga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy–amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan va 1 ta foydali modelga patent arizasi mavjud.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi

118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va talabchanligi, maqsad va vazifalar, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Ekskavator tishlarining ekspluatatsion xususiyatlari va yeyilish sabablari tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida "Olmaliq KMK" AJning Qalmoqqir konida, xususan “Olmaliq KMK” AJning Markaziy ta’mirlesh–mexanika zavodida qo‘llanilayotgan ekskavator tishlarining sharhi keltirilgan (1–rasm). Foydali qazilmalarni qazib olishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan karyer ekskavatorlariga alohida e’tibor qaratilgan. Qalmoqqir konining markaziy kareerida foydalaniladigan kon ekskavatorlarining texnik xususiyatlari batafsil bayon etilgan.

Keng tarqalgan kon ekskavatorlarining turli xillari, ularning vazifalari va o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqilgan. Cho‘mich tishlariga katta zarbiy yuklanishlar va qarshilik kuchlari ta’sir etishi natijasida ularning yeyilishi kuzatilishi ta’kidlangan.

Shuningdek, bobda tishlarning yeyilishiga ta’sir etuvchi omillar, jumladan, tog‘ jinsining o‘lchami, tishlarning kirish burchagi va tezligi muhokama qilingan. Bu esa ekskavator tishlari va boshqa qismlarining xizmat muddatini uzaytirish yo‘llarini izlash zarurligini ko‘rsatib beradi. Mumkin bo‘lgan yechimlardan biri tishlar tayyorlangan materialning kimyoviy tarkibini o‘zgartirishdir. Bu ularning mustahkamligi va yeyilishga chidamliligini oshirish imkonini beradi.

Tishlarni ishlab chiqish va tayyorlash sohasidagi tendensiyalar, shuningdek, ularning ekskavatorlar unumdorligi va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlariga ta’siri ko‘rib chiqildi.



1 – rasm. “Olmaliq KMK” AJ Markaziy ta’mirlesh–mexanika zavodida quyilgan EKG ekskavator kovshiga o‘rnatilgan tishlar

Tishlarning ishlash muddatini va yeyilish koeffitsiyentini oshirish maqsadida tishlar tayyorlanadigan materialning kimyoviy tarkibini o'zgartirishga alohida e'tibor beriladi. Tishlarning har xil turlari, ularning tuzilishi va ishlatilish sohalari, shuningdek, ularning mada qazib olish samaradorligini oshirish va ekskavatorlarning to'xtab turish vaqtini qisqartirishdagi roli bayon etilgan. Shuningdek, bobda tish koronkalarining turlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari, ishlab chiqarishda tishlarni quyish usullari keltirilgan.

110G13L po'lati (Gadfield po'lati deb ham ataladi) ishlab chiqarishning zamonaviy jihatlari ko'rib chiqilgan. Bu yuqori marganesli austenit quyma po'lati noyob xususiyatlarga ega bo'lib, uni ishqalanish, zarbiy qovushqoqlik va plastiklikka yuqori talablar qo'yiladigan detallar uchun eng maqbul tanlov qiladi.

Zamonaviy sanoatda qo'llaniladigan quyish texnologiyalarining turli xillari, jumladan, qum qoliplarga quyish, uzluksiz quyish, gazlangan modellar bo'yicha quyish, qobiq qoliplarga quyish, bosim ostida quyish, markazdan qochma quyish, kokil quyish va metallarni eritilgan modellar bo'yicha quyish tasvirlangan. Bu usullarning har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega bo'lib, u yoki bu usulni tanlash detalga qo'yiladigan talablar va ishlab chiqarish sharoitlariga bog'liq.

Shunday qilib, ushbu bob ekskavator tishlarining yeyilishi muammosining dolzarbligini va uni hal qilish yo'llarini izlash zarurligini asoslab beradi. Shuningdek, u bu sohadagi keyingi tadqiqotlar va ishlanmalarning yo'nalishini ham belgilaydi.

Dissertatsiyaning **“110G13L markali po'latning mexanik xossalarini oshirish metodikasi va tadqiqot obyektlarini tanlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlarini tanlash va asoslash, jumladan, materialning xususiyatlari (110G13L markali po'lat), xorijiy olimlarning modifikatsiyalash tajribalari, asosiy elementlar va aralashmalarning po'lat xossalariga ta'siri va yuqori marganesli po'latni modifikatsiyalash usullari va sharoitlarining tavsifi ko'rib chiqilgan.

Xususiyatlari tufayli “Olmaliq KMK” AJda 110G13L po'latidan maydalagich va ekskavatorlar uchun turli detallar quyiladi. Quyma detallarning yeyilishga chidamliligini oshirish uchun ba'zi paramagnit elementlar bilan kichik dozalarda legirlash yoki uni modifikatsiyalash mumkin, chunki yuzaga ishlov berish vaqtinchalik xarakterga ega va juda ko'p energiya sarfini talab qiladi.

Shuningdek, 110G13L po'latining xususiyatlari va tuzilishi GOST va xorijiy analoglarga muvofiq ko'rib chiqildi. Gadfield po'latining xususiyatlari va qo'llanilishi tavsiflangan, shuningdek, “Olmaliq KMK” AJning turli bo'linmalarida qo'llaniladigan ushbu po'latdan quyilgan detallar sanab o'tilgan.

Metallarning xossalaridan kelib chiqib, legirlovchi elementlarning po'latning mexanik xossalariga ta'siri ko'rib chiqilgan va xulosalar qilingan. “Olmaliq KMK” AJ sharoitiga optimal mos keladigan istiqbolli modifikatorlar aniqlandi. Shuningdek, qo'llaniladigan modifikatorning massa ulushini aniqlash usullari va hisoblash formulalari keltirilgan.

Umuman olganda, 110G13L po'lati yeyilishga, zarbiy qovushqoqlikka va plastiklikka yuqori talablar qo'yiladigan detallarni ishlab chiqarish uchun muhim material hisoblanadi. Ushbu po'latni ishlab chiqarishning zamonaviy jihatlari xossa va xususiyatlari yaxshilangan yuqori sifatli detallar olish imkonini beradi.

Uchinchi bob **“Po'latni modifikatsiyalash texnologiyasi tadqiqotlari.**

Laboratoriya sinovlarini o'tkazish deb nomlangan bo'lib, bunda modifikator sifatida Al, Al + Ni va Ni ishlatilgan po'latning laboratoriya namunalari olish, laboratoriya sinovlari tahlillarini olish va tanlangan modifikatsiyalash usulini asoslashga bag'ishlangan.

Ushbu bobda modifikator sifatida alyuminiy qo'shilgan 110G13L markali po'latning laboratoriya namunalari olish yoritilgan. Legirlovchi elementlarning dastlabki massasini hisoblash uchun "Convert-easy" dasturidan foydalanildi.

Laboratoriya sinovlari natijasida Al 2% gacha, Al + Ni 2% gacha va Ni 2% gacha qo'shilgan 110G13L po'latining bir nechta laboratoriya namunalari olindi. Namunalar belgilangan xususiyatlarga mos keldi va keyingi tadqiqotlar va sinovlar uchun tayyorlandi.

Namunalarni olish jarayoni xom ashyoni tayyorlash, modifikator qo'shish, eritish, grafit qoliplarga quyish va sovutishni o'z ichiga olgan. Kimyoviy bir xillikka erishish uchun namunalar besh marta qayta eritildi va oxirgi bosqich quyish jarayoni bo'ldi.

Mexanik sinovlar uchun namunalarning o'lchamlari tegishli GOSTlar asosida ishlab chiqilgan. Namunalar dastlabki sof (99%) legirlovchi komponentlarni eritish, kerakli miqdorda modifikator qo'shish va eritilgan po'latni grafit qoliplarga quyish orqali olingan. Qotishdan keyin namunalar mexanik ishlovdan o'tkazildi.

Laboratoriya sinovlari natijalari shuni ko'rsatdiki, Al maxsus intermetallid birikmalar hosil bo'lishiga va po'latning korroziyaga chidamliligini oshirishga yordam beradi. Turli tahlil usullari yordamida yuqori entropiyali qotishmalarning mikrostrukturasi va fazaviy tarkibini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, u po'lat donalarining o'lchami va taqsimlanishiga, fazaviy tarkibiga va mexanik xossalariga ta'sir ko'rsatadi.

110G13L markali po'lat tarkibiga Al qo'shilishi uning strukturaviy va mexanik xossalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Al maxsus intermetallid birikmalar hosil bo'lishiga yordam beradi va po'latning korroziyaga chidamliligini yaxshilaydi, Ni esa po'latning mexanik xususiyatlarini o'zgartirib, austenit strukturasi barqarorlashtiradi.

Ni 110G13L po'latining xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, uning past haroratlarda zarbiy qovushqoqligi va plastikligini yaxshilaydi, korroziyaga chidamliligini oshiradi va austenit strukturasi barqarorlashtiradi. Shuningdek, po'latning kesib ishlanuvchanligini yaxshilaydi. Biroq, Ni ning ortiqcha miqdori po'latning tannarxini oshirishi va payvandlashda yoriqlarga moyillikni oshirishi va plastiklikni oshirishi mumkin, bu esa zarba yuklamalarida salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Po'latga termik ishlov berish natijasida hosil bo'lishi mumkin bo'lgan martensit, sorbit va beynit kabi turli xil tuzilmalar ham muhokama qilinadi. Ushbu tuzilmalarning har biri o'ziga xos mexanik xususiyatlarga ega va po'latning xususiyatlariga ta'sir qiladi.

110G13L po'latiga Al qo'shilishi uning mexanik xususiyatlarini, ayniqsa qattiqligini va vaqtinchalik cho'zilishdagi mustahkamligini sezilarli darajada oshirishga olib keladi. Bu ushbu qotishmani zarbiy-abraziv yeyilishga chidamli qiladi va uning yeyilishga chidamliligini oshiradi.

Al qo'shilganda po'latning mexanik xossalarining yaxshilanishi qotishma

donalarining chegaralarini tozalash va elementlarning chegaraviy diffuziyasini sekinlashtirish, shuningdek, qattiq eritmaning mustahkamligini oshirish qobiliyati bilan izohlanadi. Bundan tashqari, alyuminiy quyma metallning yanada nozikroq dendrit tuzilishini olishga yordam beradi, bu esa metallning zichligi va po‘latning birlamchi tuzilishining tuzilishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Al ning modifikatsiyalovchi ta‘siri quyma metallning yanada nozikroq dendrit tuzilishini olishda namoyon bo‘ladi. Al 110G13L po‘latining xususiyatlariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatib, uning korroziyaga chidamliligini, quyish va payvandlash xususiyatlarini, shuningdek, mexanik xususiyatlarini yaxshilaydi. Kichik konsentratsiyalarda (1,5% gacha) u suyuqlik oquvchanligini oshiradi, issiq yoriqlar ehtimolini kamaytiradi va austenit tuzilishini saqlab qoladi, plastiklik va zarbiy qovushqoqlikni yaxshilaydi. Biroq, alyuminiy 2% dan oshganda mo‘rt intermetallidlar, ferrit faza va karbidlar hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin, bu esa po‘latning mexanik xususiyatlari va plastikligini yomonlashtiradi. 110G13L po‘lati tarkibidagi alyuminiyning maqbul miqdori 0,5–1,5% ni tashkil etadi, bu esa eng yaxshi ekspluatatsion xususiyatlarni ta‘minlaydi.

Nikel 110G13L po‘latiga ham ijobiy, ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ijobiy tomonlari shundaki, u past haroratlarda zarbiy qovushqoqlik, plastiklik va mustahkamlikni oshiradi, austenit tuzilishini barqarorlashtiradi, korroziyaga chidamliligini yaxshilaydi va mo‘rt yemirilishga moyilligini kamaytiradi. Ammo nikel miqdori 3% dan ortiq bo‘lsa, po‘latning tannarxini oshirishi, austenitning ortiqcha barqarorlashuviga olib kelishi va abraziv yeyilish sharoitida yeyilishga chidamliligini yomonlashtirishi mumkin. 110G13L po‘lati tarkibidagi nikelning maqbul miqdori 0,5–2,0% ni tashkil etadi, bu esa mustahkamlik, qovushqoqlik va yeyilishga chidamlilik o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlaydi.

Alyuminiy va nikelni birgalikda modifikatsiyalash 110G13L po‘latining bir tekis, mayda donador austenit tuzilishini olish imkonini beradi. Bu uning qovushqoqlik, yeyilishga chidamlilik va mustahkamlik kabi mexanik xususiyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, alyuminiy va nikel po‘latni parchinlashga chidamli qilib, uni mo‘rtlashdan saqlaydi. Shunday qilib, bu elementlar ushbu po‘latning ekspluatatsion xususiyatlarini oshirish, uning tuzilishi va fazaviy tarkibini yaxshilash uchun optimal modifikatorlardir.

Shunday qilib, laboratoriya sinovlari Al, Al + Ni va Ni ko‘rinishidagi modifikatorli 110G13L po‘lat namunalarini olish va uning materialning tuzilishi va xususiyatlariga ta‘sirini o‘rganish imkonini berdi. Olingan natijalarning tahlili po‘latning mexanik xossalari oshirish va keyinchalik sanoat sinovlarida sinash uchun modifikatorlarning maqbul tarkibini aniqlashga olib keldi. Mexanik sinovlar natijasida olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, ~1,5% Al va ~1,5% Al + ~2% Ni modifikatsiyali ikkita po‘lat tarkibi tanlandi. Bir Ni bilan modifikatsiyalash “Olmaliq KMK” AJ sharoitida materialning tannarxi va plastinasimon xususiyatlarining oshishi tufayli maqbul emas, bu esa zarba yuklamalarida salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“Texnologiyani ishlab chiqish va amalda qo‘llash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobi “Olmaliq KMK” AJ Markaziy ta‘mirlash–mexanika zavodi Quyuv sexi sharoitida 110G13L po‘latini modifikatsiyalash texnologiyasini ishlab chiqishga bag‘ishlangan bo‘lib, 110G13L modifikatsiyalangan po‘latdan tayyorlangan

yangi ekskavator tishlarining sanoat sinovlari natijalari keltirilgan va sanoat sinovlari ma'lumotlari bo'yicha xulosa qilingan.

"Olmaliq KMK" AJ Markaziy ta'mirlash–mexanika zavodida (MTMZ) ekskavator tishlarini 110G13L po'latidan eritish DSP–3 va DS–5MT turidagi elektr yoyli po'lat eritish pechlarida amalga oshiriladi.

Eritishni boshlashdan oldin pechni tayyorlash, taglikni tozalash, ohak bilan qoplash va bir necha marta qaynatmasdan eritish amalga oshiriladi, so'ngra yumshatilgan qatlam metall qirg'ichlar bilan olib tashlanadi.

Shixta materiallari sifatida quyidagilar qo'llaniladi: po'lat parchalari, ferromarganes, ferrosilitsiy, issiq briketlangan temir va ishlab chiqaruvchi zavodlarning GOST va TM talablariga muvofiq qayta ishlangan cho'yan.

Metallni oksidsizlantirish uchun tegishli hajmda silikokalsiy, ferrosilitsiy, alyuminiy lomlari va ferrotitan ishlatiladi. Yordamchi material sifatida ohak, eruvchan shpat, koks va grafitlangan elektrodlar ishlatiladi.

Eritishda ishlatiladigan barcha materiallar quruq va qolip aralashmasi, qum, o'tga chidamli moddalar va hokazolardan tozalangan bo'lishi kerak. Metall parchalari tarkibida rangli metall parchalari bo'lmasligi, metall parchalari o'lchamlari 600x400x200 mm dan oshmasligi kerak.

Pechni tayyorlashdan so'ng darhol shixta yuklanadi. Yuklashdan oldin poydevorga metall shixta massasining 2–4% miqdorida ohak solinadi. Badyadagi shixta shunday tartibda joylashtiriladi: pastga po'lat qirindisi yoki mayda shixta bo'laklari, keyin yirik va o'rtacha, so'ngra yana mayda bo'laklar qo'yiladi. Bo'laklar nisbati o'lchamlarning kamayishi tartibida 40 – 40 – 20 ni tashkil etadi. Uskunaning umumiy holati va yuklangan material hajmi tekshirilgandan so'ng, elektrodlar tushiriladi va tok beriladi.

Elektrodlar bilan eritish bir necha bosqichda turli tok berish bilan amalga oshiriladi. Eritishning boshida (15–20 daqiqa) transformatorning past bosqichida ishlanadi. Bu yoylarning gumbaz futerovkasiga haddan tashqari issiqlik ta'sirini oldini olish uchun qilinadi, so'ngra to'liq quvvatga chiqiladi. Barcha shixtaning 70–80 foizi transformatorning to'liq quvvatida eritiladi, shundan so'ng kuchlanish ham pasaytiriladi. Eritish paytida shixta ag'darilishining oldini olish va eritishni tezlashtirish uchun qiyaliklardan urib tushiriladi. Ag'darilishlar o'z navbatida elektrodning sinishiga olib kelishi mumkin. Suyuqlanish jarayonida qisman deformatsiya sodir bo'ladi. Eritilgan metallni aralastirish lom bilan amalga oshiriladi. Qoshiq yordamida ish oynasidan yarim masofadagi zonadan stakanga metall namunasi olinadi.

So'ngra oksidlanish jarayoni sodir bo'ladi. Oksidlanish davri eritish davri shlaklarining 65–75% ni siqib chiqarishdan boshlanadi. Quyib olingandan so'ng pechga metall massasiga nisbatan 2–4% ohak va zarur bo'lsa, plavik shpati yoki shamot beriladi. Suyuq harakatchan shlak shakllangandan so'ng metallni 1500 °C gacha qizdirish va "uyum" hosil qilish uchun temir madasi va ohak porsiyalarini kiritish kerak. Pech erigan shlakni o'zi oqib tushishi uchun ishchi oyna tomonga engashtiriladi. Zarur bo'lganda shlakni suyultirish uchun plavik shpati yoki shamot urish usuli qo'llaniladi. Oksidlanish davrining davomiyligi 1 soatdan oshmasligi kerak. qaynashning oxiriga kelib, kamida 1550 °C haroratda uglerod va fosfor miqdorini

tekshirish uchun namuna olinadi. Kerakli kimyoviy tahlil tasdiqlangandan so'ng, oldindan hisoblangan miqdorda ferrosilitsiy bilan dastlabki oksidsizlantirish amalga oshiriladi. Avvalgi bosqichlarda bo'lgani kabi nazorat namuna olish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qaytarilish davri rafinatsiyalash, maydalangan koks va kukunsimon silikokalsiy aralashmasini cho'ktirishdan iborat.

Oldindan hisoblangan miqdorda ferromarganes va ferrosilitsiyning kerakli hajmi kiritiladi, bunda marganes miqdori 13% va kremniy miqdori 0,4–0,6% ni tashkil etadi. Shuningdek, har bir qo'shimchadan keyin aralashmani skrebkalar bilan yaxshilab aralashtirish kerak. Oksidsizlantirilgan shlak oxir–oqibat sovish paytida havoda oksidsizlantirilishi va oq kukunga aylanishi kerak. Metallni oq shlak ostida kamida 30 daqiqa ushlab turish kerak. Kimyoviy tahlildan so'ng eritmani kerakli miqdordagi komponentlar miqdoriga to'g'rilanadi.

Eritmani chiqarish 1480 °C dan yuqori bo'lmagan haroratda cho'michga ajratilgan chiqarish teshigi orqali amalga oshiriladi. Po'latni oxirgi oksidsizlantirish va modifikatsiyalash uchun cho'mich hajmining 1/3 qismi to'ldirilgandan so'ng, oldindan hisoblangan miqdordagi alyuminiy metall oqimi ostida cho'michga uzatish kerak. Qo'shiladigan alyuminiyning massasini hisoblash texnolog tomonidan yakuniy eritmada alyuminiyning kerakli miqdoriga (~1,5% mass.) erishish uchun amalga oshiriladi. Kimyoviy tahlil uchun namunani o'lchash bevosita kimyoviy tahlil uchun mo'ljallangan cho'michdan amalga oshiriladi. Metallni eritish uchun sarflangan umumiy vaqt 3 soatdan ortiqni tashkil qiladi.

Turli o'qli, mayda donali tuzilishning shakllanishi, quymalarda transkristallanishning yo'qligi yeyilishga chidamlilikda yuqori mexanik xususiyatlarni olish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Po'lat quyishning quyidagi harorat rejimlariga rioya qilish majburiydir (cho'ktirish harorati bo'yicha).

Yuqori harorat yirik karbidlarning kristallanishida po'latning cho'kishiga va issiq yoriqlar hosil bo'lishiga yordam beradi. Po'latni shakllar bo'yicha quyish harorati quymalarning xususiyatlarini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Agar quyishdan so'ng cho'michda 15–30 mm qalinlikdagi skrapina qolsa, quyish harorati normal hisoblanadi, bu po'lat quyuvchi tomonidan vizual ravishda aniqlanadi.

1–Jadval

Quymalarni ushlab turishning harorat oralig'i

Uskuna bo'yicha harorat, °C	1420	1430	1440	1450	1460	1470	1480	1490	1500
Ushlab turish vaqti, min	2	3	4	5	6	8	10	12	14

Metall pechdan chiqarilgandan so'ng, metallning harorati cho'michda cho'ktirish termopara bilan po'lat quyuvchi yoki uning yordamchisi tomonidan usta, STK nazoratchisi ishtirokida o'lchanadi. Ikkilamchi asbobga ulangan termometrning ko'rsatishi va ushlab turish suyuqlantirish jurnaliga yozib boriladi. Metallni kovshda

